

**2024-2025-O'QUV YILIDA
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING**

11-SINF

O'QUVCHILARI UCHUN

GEOGRAFIYA

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI
O'TKAZISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

**TANLOV
FANLAR**

**2024-2025-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN GEOGRAFIYA FANIDAN YAKUNIY
NAZORAT IMTIHONINI O'TKAZISH BO'YICHA SPETSIFIKATSIYASI**

Tuzuvchi: Avezov Muxriddin Maqsud o'g'li – Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Tabiiy geografiya kafedrası dotsenti.

Taqrizchi: Hojiyeva Mayram Toshpo'latovna – Respublika ta'lim markazi Tabiiy fanlar bo'lim boshlig'i.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRINING 2025-yil 20-fevraldagi "2024/2025-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim
muassasalarida o'quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va
o'tkazish to'g'risida"gi 65-son buyrug'i**

O'quvchilarning geografiya fanidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024–2025-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy nazorat imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

I. 11-sinflarda Geografiya fanidan yakuniy attestatsiya variantining tuzilishi.

Imtihon ishining har bir varianti shakli va murakkablik darajasi turlicha bo'lgan 20 ta topshiriqni o'z ichiga oladi (5-jadval).

1-qism 17 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta yoki bir son birligi, bosma harf bilan yozilgan so'z yoki moslashtirilgan jadval ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism kengaytirilgan javobli 3 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, ularda berilgan geografik topshiriq (masala)ning yechimini asoslab, taqdim etish lozim.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari geografiya fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limning 7–10-sinflar mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Biletida o'quvchiga 20 tadan savol beriladi. Savollarning 5 tasi bilish, 13 tasi qo'llash, 2 tasi mulohaza ko'nikmalarini baholashga oid. Topshiriqlarga javob berishi uchun 120 daqiqa vaqt beriladi.

O'quvchilarning yozma ishlari geografiya fanidan 100 ball asosida baholanadi:

0 – 29% – “qoniqarsiz”;

30–65% – “qoniqarli”;

66–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a'lo”

Javoblar varaqasini to'ldirish shartlari:

moslikni aniqlashga doir topshiriqlarda har bir bo'sh katakka faqat bitta harf (bosma harfda) yoki raqam ortiqcha belgilersiz yozilishi kerak, aks holda 0 ball qo'yiladi;

qisqa javobli topshiriqlarning javoblari faqat raqamlarda yoki bosma harflarda yozilishi kerak, aks holda 0 ball qo'yiladi, bunda ham har bir katakka bitta simvol yozilishi kerak;

kengaytirilgan javobli topshiriqlar alohida javob varag'iga yoziladi va baholovchi fan ekspertlari tomonidan belgilangan mezonlar asosida tekshiriladi. Har bir topshiriq uchun batafsil baholash mezonlari berilgan bo'lib, unda har bir ball (noldan maksimal ballgacha) qanday holatda qo'yilishi aniq ko'rsatiladi;

har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

1-jadval

Sinov materiallarining qismlar bo'yicha taqsimoti

Qism	Topshiriqlar soni	Tabiiy geografiya	Ijtimoiy iqtisodiy geografiya	Topshiriq shakli	Tabiiy geografiya	Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya	Qism ulushi %
1-qism	17	9	8	Qisqa javobli	36	32	68%
2-qism	3	2	1	To'liq yechimi keltirilgan	20	12	32%
Jami	20	11	9		56	44	100

2-jadval

Mazmun sohalari bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti

Mazmun soha	Topshiriqlar soni	Topshiriqlarning foizi	Qisqa javobli bali	To'liq javobli bali	Jami ball
Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi	1	5	4		4
Geografik qobiq va geografik xaritalar	2	10	4/8		8

Dunyo okeani va okeanlar tabiati	1	5	4		4
Materiklar tabiati	2	10	4/8		8
Oʻrta Osiyo tabiiy geografiyasi	1	5	4		4
Oʻzbekiston tabiiy geografiyasi	2	10	4/8		8
Oʻzbekiston xoʻjaligining umumiy tavsifi	1	5	4		4
Oʻzbekistonning iqtisodiy rayonlari (viloyatlari)	2	10	4/8		8
Jahon xoʻjaligining umumiy tavsifi	2	10	4/8		8
Jahonning regional tavsifi	3	15	4/12		12
Kartografik topshiriq (yozma)	1	5		8	8
Tabiiy geografiyaga oid masala (yozma)	1	5		12	12
Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaga oid masala (yozma)	1	5		12	12
Jami:	20	100	68	32	100

3-jadval
Baholanadigan ko'nikmalar taqsimoti

Fan	Bilish	Qo'llash	Mulohaza
Tabiiy geografiya	3	7	1
Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya	2	6	1
Jami	5	13	2

B-bilish, reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalarni, tushuncha va atamalarining mohiyatini bilish, **yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda** qo'llashga qaratilgan.

Q-qo'llash, produktiv o'quv topshiriqlari – o'quvchilardan o'rganilgan mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, **bir nechta qonun va qonuniyatlarni** bir vaqtda qo'llab, umumlashtirish va xulosa chiqarishni talab qiladi.

M-mulohaza, intellektual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni **notanish vaziyatlarda** qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi.

4-jadval
Sinov materiallari ballarining taqsimoti

	Qisqa javobli bali/soni	To'liq yechimli	Mulohaza to'liq yechimli	Jami
Tabiiy geografiya	36 ball / 9 ta	8 ball / 1 ta	12 ball / 1 ta	56 ball
Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya	32 ball / 8 ta		12 ball / 1 ta	44 ball
Jami:	68 ball / 17ta	8 ball / 1ta	24 ball / 2ta	100 ball

5-jadval
Topshiriqlarda baholanadigan ko'nikmalar

T/r	Bo‘lim nomi	Baholanadigan ko‘nikmalar	Ko‘nikma darajasi	Topshiriq shakli	Ball	Qism								
1-qism														
1	Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi	Turli tabiiy geografik atamalar yoki ularga xos xususiyatlarni aniqlaydi.	B	Qisqa javobli	4	I								
2	Geografik qobiq va geografik xaritalar	Geografik xaritalar, geografik qobiq tarkibiy qismlari va tabiat komponentlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘xshash va farqli jihatlarini ajrata oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni tanlash <table><tr><td>I</td><td>II</td><td>III</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td></tr></table>	I	II	III	A	B	C	4	I		
I	II	III												
A	B	C												
3	Jahon xo‘jaligining umumiy tavsifi	Jahon aholisi, uning joylashuviga xos geografik va demografik xususiyatlarni o‘zaro moslashtira oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni tanlash <table><tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr></table>	1	2	3	4	A	B	C	D	4	I
1	2	3	4											
A	B	C	D											
4	Dunyo okeani va okeanlar tabiati	Dunyo okeani va uning qismlariga xos xususiyatlarni farqlab, moslashtira oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni aniqlash <table><tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr></table>	1	2	3	4	A	B	C	D	4	I
1	2	3	4											
A	B	C	D											

5	O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlari (viloyatlari)	O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari (viloyatlari) ning geografik xususiyatlarini izohlay oladi.	B	Qisqa javobli	4	I								
6	O‘zbekiston xo‘jaligining umumiy tavsifi	O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasiga doir ma’lumotlarni aniqlaydi va tahlil qila oladi.	Q	Qisqa javobli	4	I								
7	O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi	O‘rta Osiyo tabiatining xususiyatlarini, unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qila oladi, o‘lkalarning tabiiy geografik xususiyatlarini aniqlaydi.	Q	Qisqa javobli Moslikni aniqlash <table><tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr></table>	1	2	3	4	A	B	C	D	4	I
1	2	3	4											
A	B	C	D											
8	Jahonning regional tavsifi	Jahonning turli regionlaridagi mamlakatlar xususiyatlarini aniqlaydi hamda tahlil qila oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni aniqlash <table><tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr></table>	1	2	3	4	A	B	C	D	4	I
1	2	3	4											
A	B	C	D											
9	Jahonning regional tavsifi	Jahon mamlakatlarining aholisi, xo‘jaligi va shaharlariga xos xususiyatlarni aniqlaydi.	B	Qisqa javobli	4	I								

10	Jahon xoʻjaligining umumiy tavsifi	Jahon xoʻjaligining tarmoqlari, ularning xususiyatlarini oʻzaro moslaydi va izohlay oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni aniqlash <table><tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr></table>	1	2	3	4	A	B	C	D	4	I
1	2	3	4											
A	B	C	D											
11	Oʻzbekistonning iqtisodiy rayonlari (viloyatlari)	Oʻzbekiston iqtisodiy rayonlari yoki viloyatlariga oid maʼlumotlarni aniqlab, u bilan bogʻliq xususiyatlarni izohlay oladi.	Q	Qisqa javobli	4	I								
12	Materiklar tabiati	Materiklar tabiatining xususiyatlari, ularda roʻy bergan oʻzgarishlarni qiyoslaydi va taqqoslaydi.	Q	Qisqa javobli Moslikni aniqlash <table><tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr></table>	1	2	3	4	A	B	C	D	4	I
1	2	3	4											
A	B	C	D											
13	Geografik qobiq va geografik xaritalar	Geografik qobiq yoki geografik xaritalarning oʻziga xos xususiyatlarini topadi	B	Qisqa javobli	4	I								
14	Jahonning regional tavsifi	Jahon mamlakatlari va ulardagi geografik obyektlarni oʻzaro moslashtira oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni aniqlash <table><tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td><td>4</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td><td>D</td></tr></table>	1	2	3	4	A	B	C	D	4	I
1	2	3	4											
A	B	C	D											

15	O‘zbekiston tabiiy geografiyasi	O‘zbekiston tabiiy sharoiti hamda tabiiy geografik okruglarining xususiyatlarini tahlil qiladi va to‘g‘ri hukmlar chiqara oladi.	Q	Qisqa javobli Moslikni aniqlash <table><tr><td>1</td><td>2</td><td>3</td></tr><tr><td>A</td><td>B</td><td>C</td></tr></table>	1	2	3	A	B	C	4	I
1	2	3										
A	B	C										
16	Materiklar va okeanlar tabiati	Materiklar va okeanlar tabiatining xususiyatlari bo‘yicha bir necha guruhga ajrata oladi.	Q	Qisqa javobli	4	I						
17	O‘zbekiston tabiiy geografiyasi	O‘zbekiston tabiatining xususiyatlarini aniqlaydi.	B	Qisqa javobli	4	I						
2-qism												
18	Kartografik topshiriq	Berilgan xarita (yoki xarita-sxema)dan geografik qonuniyatlarni aniqlaydi, ularni sintezlaydi, ma’lumotlarni qiyosiy taqqoslaydi.	Q	To‘liq yechimli	8	II						
19	Tabiiy geografiyaga oid masala (yozma)	Tabiiy geografiyaga doir qonuniyatlarni ifodalovchi masalani yechadi, undagi qonuniyatni izohlaydi va tegishli xulosa chiqara oladi.	M	To‘liq yechimli	12	II						

20	Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaga oid masala (yozma)	Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaga oid mazmunni ifodalovchi masalani yechadi, undagi xususiyatlarni izohlaydi va tegishli xulosa chiqara oladi.	M	To'liq yechimli	12	II
----	--	--	---	-----------------	----	----

Geografiya fanidan asosiy foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulyamov P.N., Qurbonniyozov R., Avezov M.M., Saidova N.P. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi. –T.: “MITTI YULDUZ”, 2020.

2. Soatov A., Abdulqosimov A., Mirakmalov M. Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi). 6-sinf uchun darslik. –T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2017.

3. G‘ulomov P., Vahobov H., Baratov P., Mamatqulov M. Geografiya (O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi). 7-sinf uchun darslik. –T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2017.

4. Musayev P., Musayev J. Geografiya (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). 8-sinf uchun darslik. –T.: “Sharq” NMIU, 2019.

5. Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M., Fedorko V. Geografiya (Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi). 9-sinf uchun darslik. –T.: “O‘zbekiston”, 2019.

6. Fedorko V., Safarova N., Ismatov J., Nazaraliyeva E. Geografiya (Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi). 10-sinf uchun darslik. –T.: “Respublika ta’lim markazi”, 2022.

7. Mirakmalov M.T., Avezov M.M., Nazaraliyeva E.Y. Tabiiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar. –T.: “Fan va texnologiya”, 2015.

8. Avezov M.M., Mirakmalov M.T. Geografiya fanidan amaliy mashg‘ulotlar. –T.: “Donishmand ziyosi”, 2022.

9. Atlaslar (7-9-10-sinflar uchun). –T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, 2022-2023.

1. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi

1. Shimoliy va Janubiy qutblarni tutashtiruvchi, Yer yuzasidan o'tkazilgan yarim aylana chiziqlar ...lar deb ataladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

2. Yerning ichki kuchlari ta'sirida Yer po'stida ro'y beradigan siljish, yorilish, ko'tarilish, cho'kish, bukilish harakatlariga ... harakatlar deyiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

3. Okean va dengizlarda suvdan ko'tarilib turgan va hamma tomondan suv o'ragan kichikroq quruqliklar ... deyiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

4. Yer yuziga oqib chiqqan qaynoq suyuq modda lava deyiladi. Lava asta sovib, tepa va tog'larni hosil qiladi. Bunday tepa va tog'lar ... deb ataladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

5. Quruqlikdagi iqlimi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi bir-biridan farq qiladigan yirik tabiiy komplekslari deyiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zlarni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

6. Joydagi masofaning chizmada va xaritada tasvirlaganda necha marta kichraytirilganligini ko'rsatuvchi kasr songa ... deyiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

7. O'zi turgan joyi ufq tomonlariga nisbatan aniqlash ... deyiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

8. Okean, dengiz va ko'llarning ikkita katta qismini tutashtirib turadigan suvli tor yo'lakka ... deyiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--

9. mineral boyliklarga temir rudalari va rangli metall rudalari kiradi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--

10. Dengiz va okeanlarning chuqurligi ... asbobi bilan o'lchanadi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--

2. Geografik qobiq va geografik xaritalar (Qo'llash)

1. Kaynozoy erasi davrlarini qadimgisidan hozirgisiga qadar (I → II → III) tartib bilan joylashtiring.

- A) Antropogen davri
- B) Paleogen davri
- C) Neogen davri

I		II		III	
---	--	----	--	-----	--

2. Paleozoy erasi davrlarini qadimgisidan yoshrog'iga qadar (I → II → III) tartib bilan joylashtiring.

- A) Silur davri
- B) Toshko'mir davri
- C) Ordovik davri

I		II		III	
---	--	----	--	-----	--

3. Geografik qobiq tarkibiga kiruvchi qobiqlarni Yer markaziga eng yaqinidan uzog'iga qarab (I → II → III → IV) tartib bilan joylashtiring.

- A) Atmosfera
- B) Litosfera
- C) Hidrosfera
- D) Biosfera

I		II		III		IV	
---	--	----	--	-----	--	----	--

4. Quyida berilgan sonli masshtablar (A, B, C, D)ni nomli masshtablar qatori (I, II, III, IV) bilan o'zaro moslashtiring.

- | | |
|------------------|--------------------|
| A) 1: 44 000 000 | I) 1 cm da 44 m |
| B) 1: 4 400 | II) 1 cm da 4400 m |
| C) 1: 440 000 | III) 1 cm da 44 km |
| D) 1: 4 400 000 | IV) 1 cm da 440 km |

I		II		III		IV	
---	--	----	--	-----	--	----	--

5. Berilgan sonli va nomli masshtablarni yirigidan maydasiga tomon (I → II → III → IV) tartib bilan joylashtiring.

- A) 1: 55 000 000

- B) 1 cm da 100 m
C) 1: 6 600 000
D) 1 cm da 700 m

I		II		III		IV	
---	--	----	--	-----	--	----	--

6. Yer yuzasida shu vaqtgacha aniqlangan tog' burmalanish bosqichlarini qadimgisidan eng keyin sodir bo'lganiga qadar (I → II → III → IV → V) tartib bilan joylashtiring.

- A) Mezozoy
B) Kaledon
C) Alp
D) Baykal
E) Gersin


I		II		III		IV		V	
---	--	----	--	-----	--	----	--	---	--

7. Yer geologik o'tmishida sodir bo'lgan tog' burmalanish bosqichlarini eng yoshi (I) dan qadimgisi (V) ga tomon tartib bilan joylashtiring.

- A) Mezozoy
B) Kaledon
C) Alp
D) Baykal
E) Gersin

I		II		III		IV		V	
---	--	----	--	-----	--	----	--	---	--

8. Quyida keltirilgan rasmdan A, B, C, D harflar bilan belgilangan meridianlarni Bosh meridianga eng uzoq joylashgani (1) dan yaqiniga qarab (4) tartib bilan joylashtiring.



1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Quyida keltirilgan materiklarning siljishini vaqtlari bo'yicha qadimgisidan hozirgisiga qadar (I → II → III → IV) tartib bilan joylashtiring.

A	B	C	D

I		II		III		IV	
---	--	----	--	-----	--	----	--

10. Quyida keltirilgan materiklarning siljishini vaqtlari bo'yicha hozirgisidan qadimgisiga tomon (I → II → III → IV) tartib bilan joylashtiring.

A	B	C	D

I		II		III		IV	
---	--	----	--	-----	--	----	--

3. Jahon xo'jaligining umumiy tavsifi (Qo'llash)

1. Quyida berilgan davlatlar va ularning aholi zichligiga ko'ra jahonda tutgan o'rnini o'zaro moslashtiring.

- 1) Singapur
- 2) Monako
- 3) Bahrayn
- 4) Vatikan

A) 1-o'rin B) 3-o'rin C) 2-o'rin D) 4-o'rin

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

2. Quyida berilgan davlatlar va ularning etnik xususiyatlarini o'zaro moslashtiring.

- 1) Ko'p millatli
- 2) Bir millat boshqalariga nisbatan katta salmoqqa ega bo'lgan
- 3) Bir millatli
- 4) Kelib chiqishi bir-biriga yaqin millatlardan iborat

A) Fransiya B) Islandiya C) Indoneziya D) Pokiston

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

3. Quyida berilgan davlatlar va ularga xos demografik xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

1) Depopulyatsiya

2) Demografik portlash

A) Bolgariya

B) Nigeriya

C) Italiya

D) Efiopiya

1	2

4. Quyida berilgan qit’alar (1, 2, 3, 4) va jahon aholisi (2020-yil holatiga ko‘ra)ning ularga xos ulushlari (A, B, C, D)ni o‘zaro moslashtiring.

1) Osiyo

2) Amerika

3) Afrika

4) Yevropa

A) 17,2%

B) 13,2%

C) 59,5%

D) 9,6%

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

5. Quyida berilgan mahalliy dinlar va ularga e’tiqod qiluvchilarning asosiy qismi tarqalgan mamlakatlarni o‘zaro moslashtiring.

1) Sintoizm

2) Daosizm

3) Sikxizm

4) Iudaizm

A) Hindiston

B) Yaponiya

C) AQSH

D) Xitoy

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

6. Quyida berilgan dinlar va ularning tarqalish hududlarini o‘zaro moslashtiring.

1) Buddizm

2) Katolik

3) Pravoslav

4) Islom

A) Shimoliy Afrika

B) Janubiy Amerika

C) Janubi-sharqiy Osiyo

D) Shimoliy Osiyo

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

7. Quyida berilgan davlatlarni ularning urbanizatsiyalashganlik ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro moslashtiring.

1) Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan (75% dan ortiq)

2) O‘rtacha darajada urbanizatsiyalashgan (50% dan 75% gacha)

3) Past darajada urbanizatsiyalashgan (50% dan kam)

A) Peru

B) Misr

C) Belgiya

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

8. Quyida keltirilgan iqlar va ularning tarqalgan regionlarini bir-biriga moslashtiring.

1) negroid	A) Shimoliy Afrika va Amerika
2) mongoloid	B) Okeaniya va Avstraliya
3) yevropeoid	C) Markaziy va Janubiy Afrika
4) avstraloid	D) Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Quyida berilgan tillar va ulardan davlat tili maqomida foydalanayotgan mamlakatlarni o'zaro moslashtiring.

1) Ispan	A) Braziliya
2) Nemis	B) Argentina
3) Portugal	C) Avstriya
4) Ingliz	D) Kanada

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

10. Mamlakatlar va ularning tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari (har 1000 kishiga nisbatan)ni o'zaro moslashtiring.

1) Niger	A) 10-20 kishi
2) Misr	B) 30-40 kishi
3) Qozog'iston	C) 20-30 kishi
4) Fransiya	D) 0-10 kishi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

4. Dunyo okeani va okeanlar tabiati (Qo'llash)

1. Quyida berilgan dengizlarni ular joylashgan okeanlar bilan moslashtiring.

1) Karib 2) Barens 3) Qizil 4) Filippin	A) Atlantika okeani B) Tinch okean C) Shimoliy Muz okeani D) Hind okeani
--	---

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

2. Quyida berilgan orollarni ular joylashgan okeanlar bilan moslashtiring.

1) Meksika	A) Hind okeani
2) Alyaska	B) Atlantika okeani
3) Bengaliya	C) Tinch okean

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

3. Quyida berilgan orollarni ular joylashgan okeanlar bilan moslashtiring.

1) Gibraltar	A) Hind okeani
2) Shelixov	B) Atlantika okeani
3) Mozambik	C) Tinch okean
4) Kara darvozasi	D) Shimoliy Muz okeani

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

4. Quyida berilgan orollarni ular joylashgan okeanlar bilan moslashtiring.

1) Kuba oroli	A) Hind okeani
2) Gavayi orollari	B) Atlantika okeani
3) Madagaskar oroli	C) Shimoliy Muz okeani
4) Severnaya Zemlya oroli	D) Tinch okean

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--


5. Quyida berilgan sayyohlarning nomlarini ular o'rgangan okeanlar bilan nomlari moslashtiring.

1) B. Diash	A) Hind okeani
2) I. Kruzenshteren	B) Atlantika okeani
3) A. Tasman	C) Tinch okean
4) N. Nordensheld	D) Shimoliy Muz okeani

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

6. Quyida keltirilgan okeanlar nomlari (1, 2, 3, 4)ni ularning xarita-sxemalari (A, B, C, D) bilan moshlashtiring.

1. Hind okeani
2. Tinch okean
3. Atlantika okeani
4. Shimoliy Muz okeani



1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

7. Quyida keltirilgan okean oqimlari (1, 2, 3, 4) ni ular harakatlanuvchi okeanlar nomlari (A, B, C, D) bilan moshlashtiring.

1. Kurosiyo	A. Hind okeani
2. Somali	B. Tinch okean
3. Transarktika	C. Atlantika okeani
4. Golfstrim	D. Shimoliy Muz okeani

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

8. Quyida berilgan dengiz va bo'g'izlarni ular joylashgan okeanlar bilan moslashtiring.

1) Meksika qo'ltig'i	A) Tinch okean
2) Bering dengizi	B) Shimoliy Muz okeani
3) Mozambik bo'g'izi	C) Atlantika okeani
4) Kara dengizi	D) Hind okeani

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Quyida berilgan dengizlar va qoʻltiqlarni ular joylashgan okeanlar nomlari bilan moslashtiring.

Okeanlar nomi	Dengiz va qoʻltiqlar nomi
1) Shimoliy Muz okeani	A) Bengaliya qoʻltigʻi
2) Hind okeani	B) Biskay qoʻltigʻi
3) Atlantika okeani	C) Sharqiy Sibir dengizi
4) Tinch okean	D) Alyaska qoʻltigʻi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

10. Quyida berilgan daryolarni ular joylashgan okean havzalari nomlari bilan moslashtiring.

Okean havzalari	Daryolar nomi
1 Shimoliy Muz okeani	A Braxmaputra daryosi
2 Hind okeani	B Yanszi daryosi
3 Atlantika okeani	C Lena daryosi
4 Tinch okean	D Dunay daryosi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

5. Oʻzbekistonning iqtisodiy rayonlari (viloyatlari) (Bilish)

1. Mirzachoʻl iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi viloyatlar nomini aniqlang.

1. Qashqadaryo 2. Jizzax 3. Xorazm 4. Andijon 5. Samarqand
6. Navoiy 7. Surxondaryo 8. Fargʻona 9. Sirdaryo 10. Buxoro

--	--

2. Janubiy iqtisodiy rayon tarkibiga kiruvchi viloyatlar nomini aniqlang.

1. Qashqadaryo 2. Jizzax 3. Xorazm 4. Andijon 5. Samarqand
6. Navoiy 7. Surxondaryo 8. Fargʻona 9. Sirdaryo 10. Buxoro

--	--

3. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi maʼmuriy birliklar nomini aniqlang.

1. Qashqadaryo 2. Jizzax 3. Surxondaryo 4. Andijon 5. Samarqand
6. Navoiy 7. Xorazm 8. Sirdaryo 9. Qoraqalpogʻiston Respublikasi

--	--

4. Berilganlar orasidan Zarafshon iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi shaharlar nomlarini aniqlang.

1. Qarshi 2. Jizzax 3. Uchquduq 4. Andijon 5. Samarqand
6. Navoiy 7. Denov 8. Sirdaryo 9. Kattaqo'rg'on 10. Pop

--	--	--

5. Zarafshon iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi shaharlar nomlarini aniqlang.

1. Qarshi 2. Jizzax 3. Nurobod 4. Andijon 5. Samarqand
6. Navoiy 7. Surxondaryo 8. Sirdaryo 9. G'ozg'on

--	--	--	--

6. Farg'ona iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi shaharlar nomini aniqlang.

1. Angren 2. Urganch 3. Asaka 4. Shahrisabz 5. Guliston
6. Zarafshon 7. Namangan 8. G'allaorol 9. Marg'ilon

--	--	--

7. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni tarkibiga kiruvchi shahar/shaharchalar nomlarini aniqlang.

1. Angren 2. Urganch 3. Zomin 4. Shahrisabz 5. Guliston
6. Zarafshon 7. Namangan 8. G'allaorol 9. Marg'ilon

--	--	--

8. Quyidagilar orasidan Mirzacho'l iqtisodiy rayoni hududida joylashgan foydali qazilma konlarini ajrating.

1. Muruntov 2. Chimyon 3. Qo'ytosh 4. Qorovulbozor 5. Zarmitan
6. Marjonbuloq 7. Gazli 8. Ingichka 9. Qoratosh 10. Kogon

--	--	--

9. Berilganlar orasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan obyektlarni ajrating.

1. Navoiy kon metallurgiya zavodi
2. Shahrixon gidroelektrostansiyasi
3. Taxiatosh gidrouzeli
4. Qo'ng'iroq soda zavodi
5. Guliston yog'-ekstraksiya zavodi
6. Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi
7. Pop rezina zavodi
8. Xo'jayli shisha zavodi

--	--	--

10. Berilganlar orasidan Farg‘ona iqtisodiy rayoni hududida joylashgan obyektlarni ajrating.

1. Navoiy kon metallurgiya zavodi
2. Shahrixon gidroelektrostansiyasi
3. Taxiatosh gidrouzeli
4. Qo‘ng‘irot soda zavodi
5. Guliston yog‘-ekstraksiya zavodi
6. Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi
7. Pop rezina zavodi
8. Xo‘jayli shisha zavodi

--	--	--

6. O‘zbekiston xo‘jaligining umumiy tavsifi (Qo‘llash)

1. Quyida berilgan O‘zbekistondagi elektrostansiyalar orasidan gidroelektrostansiyalarini ajrating.

- | | | | |
|---------------|------------|----------------|---------------|
| 1. Talimarjon | 2. Angren | 3. Taxiatosh | 4. G‘azalkent |
| 5. Farg‘ona | 6. Chorvoq | 7. Uchqo‘rg‘on | 8. Navoiy |

--	--	--

2. Quyida berilgan O‘zbekistondagi konlar orasidan ko‘mir qazib olinadiganlarini ajrating.

- | | | | |
|----------------|----------------------|---------------|-------------|
| 1. Muruntov | 2. Janubiy Olamushuk | 3. Ohangaron | 4. Sharg‘un |
| 5. Marjonbuloq | 6. Boysun | 7. Tebinbuloq | 8. Orkutsoy |

--	--	--

3. Quyida berilgan O‘zbekistondagi konlar orasidan oltin qazib olinadiganlarini ajrating.

- | | | | |
|----------------|----------------------|---------------|--------------|
| 1. Muruntov | 2. Janubiy Olamushuk | 3. Ohangaron | 4. Sharg‘un |
| 5. Marjonbuloq | 6. Boysun | 7. Tebinbuloq | 8. Orkutsoy |
| | | | 9. Ko‘kpatas |

--	--	--

4. Quyida berilgan O‘zbekistondagi konlar orasidan mis qazib olinadiganlarini ajrating.

- | | | | | |
|-------------|------------|--------------|---------------|-----------------|
| 1. Muruntov | 2. Dalneye | 3. Ohangaron | 4. Oqjar | 5. Qalmoqqir |
| 6. Boysun | 7. Oqbosh | 8. Uchqizil | 9. Sariqcheku | 10. Ko‘kdumaloq |

--	--	--

5. Berilgan ma'muriy-hududiy birliklar orasidan O'zbekistondagi aholi zichligi 300-600 kishi/kv.km ni tashkil etuvchi viloyatlarni aniqlang.

1. Xorazm 2. Farg'ona 3. Jizzax 4. Samarqand 5. Navoiy
6. Buxoro 7. Surxondaryo 8. Qashqadaryo

--	--	--

6. Quyida berilgan O'zbekistondagi shaharlar orasidan yengil sanoat markazlarini ajrating.

1. Buxoro 2. Qarshi 3. Shahrisabz 4. Samarqand 5. Jizzax 6. Guliston
7. Qo'qon 8. Marg'ilon

--	--	--

7. Quyida berilgan O'zbekistondagi mintaqalar orasidan neft-gazli mintaqalar nomlari to'g'ri ko'rsatilganlarini ajrating.

1. Buxoro-Xiva 2. Qarshi-Navoiy 3. Shahrisabz-Samarqand
4. Farg'ona 5. Jizzax 6. Surxondaryo 7. Janubi-g'arbiy Hisor

--	--	--	--

8. Quyida berilgan O'zbekistondagi yoqilg'i foydali qazilmalari konlari orasidan tabiiy gaz konlarini ajratib ko'rsating.

1. Uchqir 2. Angren 3. Qorovulbozor 4. Odamtosh
5. Xonjiza 6. Olmaliq 7. Sho'rtan 8. Ko'kdumaloq

--	--	--

9. Quyida keltirilgan viloyatlar orasidan ko'p miqdorda sholi yetishtiradigan viloyatlarni ajrating.

1. Sirdaryo 2. Surxondaryo 3. Xorazm 4. Jizzax 5. Farg'ona
6. Navoiy 7. Toshkent 8. Qashqadaryo

--	--	--

10. Quyida keltirilganlar orasidan atrofida sabzavotchilik, kartoshkachilik va polizchilik katta maydonni egallaydigan shaharlarni ajrating.

1. Sirdaryo 2. Samarqand 3. Xiva 4. Andijon
5. Farg'ona 6. Navoiy 7. Toshkent 8. Qarshi

--	--	--

7. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi (Qo'llash)

1. O'rta Osiyo o'lkasidagi geografik obyektlar va ularning xususiyatlarini moslashtiring.

Geografik obyektlar		Xususiyatlar	
1	Mug'ajar	A	Orol va Kaspiy dengizlari oralig'ida joylashgan
2	Savir	B	Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida joylashgan yarimorol
3	Ustyurt	C	O'rta Osiyoning shimoli-g'arbida joylashgan tizma
4	Mang'ishloq	D	O'rta Osiyo o'lkasining sharqiy nuqtasi joylashgan

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

2. O'rta Osiyo o'lkasidagi suv omborlari va ular barpo etilgan daryolarni moslashtiring.

Suv omborlari		Daryolar	
1	To'xtag'ul	A	Zarafshon
2	Tuyabo'g'iz	B	Sirdaryo
3	Quyimozor	C	Ohangaron
4	Qayroqqum	D	Norin

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

3. O'rta Osiyo o'lkasidagi cho'llar va ularning turlarini o'zaro moslashtiring.

Cho'llar nomi		Cho'l turlari	
1	Badxiz cho'li	A	Qumli cho'llar
2	Qoraqum	B	Toshli (gipsli) cho'llar
3	Betpaqdala	C	Lyossli (efemer) cho'llar

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

4. O'rta Osiyo o'lkasining chekka nuqtalari (1, 2, 3, 4)ni tegishli ufq tomonlari (A, B, C, D) bilan o'zaro moslashtiring.

Chekka nuqtalar nomi		Ufq tomonlari	
1	Qora Irtish daryosi	A	Shimol
2	Ayirtov	B	G'arb
3	Nishopur tog'i	C	Sharq
4	Tubqarag'ay burni	D	Janub

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

5. O'rta Osiyo o'lkasidagi tog'lar va ularning cho'qqilarini o'zaro moslashtiring.

Tog'lar		Cho'qqilar	
1	Pomir	A	G'alaba
2	Xontangri	B	Tirichmir
3	Hindukush	C	Ismoil Somoniy

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

6. O'rta Osiyo hududi rivojlanishning geologik bosqichlari va ularda yuz bergan o'zgarishlarni moslashtiring.

Eralar		Yuz bergan o'zgarishlar	
1	Arxey	A	Dengiz qayta bostirib kelib, tog'lar qayta pasaygan
2	Paleozoy	B	Dengiz ostida bo'lgan va cho'kindi jinslar to'plangan
3	Kaynozoy	C	Toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir konlari hosil bo'lgan
4	Mezozoy	D	Markaziy Qizilqum tog'lari ko'tarilgan

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

7. O'rta Osiyo hududidagi konlar va ulardan qazib olinuvchi foydali qazilmalar nomlarini o'zaro moslashtiring.

Konlar		Foydali qazilmalar	
1	Qarag'anda	A	Neft
2	Tengiz	B	Toshko'mir
3	Oqtosh	C	Oltin
4	Muruntov	D	Marmar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

8. O'rta Osiyo o'lkasidagi daryolar va ularning to'yinish tipiga ko'ra turlarini o'zaro moslashtiring.

Daryolar		Daryolarning to'yinish tipiga ko'ra turlari	
1	Sirdaryo	A	Qor va muzliklarning erishidan to'yinadigan daryolar
2	Zarafshon	B	Mavsumiy qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar
3	Ohangaron	C	Muzlik va qor suvlaridan to'yinadigan daryolar
4	Murg'ob	D	Doimiy va mavsumiy qorlarning erishidan to'yinadigan daryolar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Quyida keltirilgan O'rta Osiyodagi tuproq turlarini hamda ularning tarqalgan hududlarini o'zaro moslashtiring.

Tuproq turi		Tuproqlarning tarqalgan hududi	
1	Bo'z tuproqlar	A	Daryolarning qadimgi deltalari
2	Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar	B	Tog'larning etaklarida hamda tog'oldi hududlari
3	Taqirlar	C	Qadimgi qoldiq qirlari
4	O'tloq-alluvial tuproqlar	D	Yirik daryolarning deltala

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

10. Quyida keltirilgan tabiiy geografik rayonlarni ular joylashgan tabiiy geografik kichik o'lkalarga o'zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik kichik o'lkalar		Tabiiy geografik rayonlar	
1	Qozog'iston	A	Yuqori Amudaryo vodiysi
		B	Qizilqum cho'li
2	Turon	C	Markaziy Tyanshan
		D	To'rg'ay supasimon o'lkasi

1	2

8. Jahonning regional tavsifi (Qo'llash)

1. Quyida berilgan mamlakatlarni ular joylashgan orollar bilan moslashtiring.

Mamlakatlar		Orollar	
1	Fransiya	A	Sumatra
2	Hindiston	B	Korsika
3	Indoneziya	C	Xonsyu
4	Yaponiya	D	Nikobar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

2. Quyida berilgan mamlakatlarni ularga xos xususiyatlar bilan moslashtiring.

Mamlakatlar		Xususiyatlar	
1	AQSH	A	Tyanshan tog'larida yirik muzliklarning mavjudligi hisobiga suv-energetika resurslari bilan yaxshi ta'minlangan
2	Eron	B	Aholisining 60% idan ko'prog'i forslar shuningdek, mamlakat hududida ozarbayjonlar,

			kurdlar, arablar, turkmanlar, armanlar va boshqa millatlar yashaydi
3	Qirg'iziston	C	Yirik shaharlarining aksariyati g'arbiy va janubiy dengizbo'yi hududlarida joylashgan
4	Turkiya	D	1790-yildan boshlab har 10 yilda muntazam ravishda aholi ro'yxatga olinadi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

3. Quyida berilgan Yevropa davlatlarini ularga xos xususiyatlar bilan moslashtiring.

Davlatlar		Xususiyatlar	
1	Xorvatiya	A	Orolida joylashgan davlat
2	Chexiya	B	Ichki kontinental davlat
3	Daniya	C	Yarimorolda joylashgan davlat
4	Malta	D	Dengizbo'yi kontinental davlati

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

4. Quyida berilgan Amerika qit'asi davlatlari (1, 2, 3)ni ularga xos xususiyatlar (A, B, C) bilan o'zaro moslashtiring.

Davlatlar		Xususiyatlar	
1	Kolumbiya	A	Orolida joylashgan davlat
2	Paragvay	B	Ichki kontinental davlat
3	Dominika	C	Dengizbo'yi kontinental davlati

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

5. Quyida berilgan Osiyo davlatlarini ularga xos xususiyatlar bilan moslashtiring.

Davlatlar		Xususiyatlar	
1	Xitoy	A	Orolida joylashgan davlat
2	Mongoliya	B	Ichki kontinental davlat
3	Indoneziya	C	Yarimorolda joylashgan davlat
4	Hindiston	D	Dengizbo'yi kontinental davlati

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

6. Quyida berilgan mamlakatlar va ularning geografik o'rniga ko'ra turlarini to'g'ri moslashtiring.

Geografik o'rniga ko'ra turlari		Mamlakatlar	
1	Orol davlatlar	A	Efiopiya
2	Yarimorol davlatlar	B	Kuba
3	Dengizbo'yi kontinental davlatlar	C	Turkiya
4	Dengizga chiqish imkoniyati yo'q davlatlar	D	Rossiya

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

7. Quyida berilgan mamlakatlar va ularning geografik o'rniga ko'ra turlarini to'g'ri moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik o'rniga ko'ra turlari	
A	Chad	1	Orol davlatlar
B	Indoneziya	2	Yarimorol davlatlar
C	Eron	3	Dengizbo'yi kontinental davlatlar
D	Gretsiya	4	Dengizga chiqish imkoniyati yo'q davlatlar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

8. Quyida keltirilgan mamlakatlar va ularning hududi joylashgan orollarni o'zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Orollar	
1	Yaponiya	A	Kalimantan
2	AQSH	B	Kyusyu
3	Indoneziya	C	Sitsiliya
4	Italiya	D	Nyufaundlend

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Quyida keltirilgan mamlakatlarni ularning qirg'oqlarini yuvib turuvchi dengizlar bilan moslashtiring.

Mamlakatlar		Dengizlar	
1	Turkiya	A	Karib dengizi
2	Meksika	B	Qora dengiz
3	Italiya	C	Qizil dengiz
4	Misr	D	Adriatika dengizi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

10. Quyida keltirilgan mamlakatlarni ularning qirg'oqlarini yuvib turuvchi dengizlar bilan moslashtiring.

Mamlakatlar		Dengizlar	
1	Yamayka	A	Karib dengizi
2	Fransiya	B	O'rta dengiz
3	Koreya Respublikasi	C	Qizil dengiz
4	Saudiya Arabistoni	D	Yapon dengizi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Jahonning regional tavsifi (Qo'llash)

1. Murg'ob, Tajan daryolari va "Axalteki" zotli otlari bilan mashhur Osiyodagi mamlakat nomini yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

2. 2012-yildan buyon elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmiga ko'ra jahonda birinchi o'rinni egallab kelayotgan mamlakat nomini yozing.

--	--	--	--	--

3. Hududining 97% i 4 ta yirik orolda joylashgan Sharqiy Osiyo mamlakatining nomini yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

4. Atom elektr stansiyalarining mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi tarkibidagi ulushi deyarli 80% ga teng. Bu jihatdan ... dunyoda birinchi o'rinda turadi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan mamlakat nomini yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--

5. Eng baland nuqtasi — balandligi 6194 metr bo'lgan Denali cho'qqisi hisoblangan mamlakat nomini yozing.

--	--	--

6. Dunyodagi eng yirik va qalin o'rmon massivlari, eng sersuv daryosi bilan mashhur bo'lgan mamlakat nomini yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--

7. Katoliklar soni bo'yicha Yevropada birinchi o'rinda turadigan mamlakat nomini yozing.

--	--	--	--	--	--	--

8. Jun eksport qilish bo'yicha 1-o'rinda turadigan, yirik shaharlari Adelaida, Pert shaharlari bo'lgan davlat nomini yozing

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

9. Ushbu davlat ko'p millatli tropik Afrika davlati hisoblanib, u yerda 250 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Ular orasida eng yiriklari yoruba, igbo millatlari hisoblanadi. Ta'rif keltirilgan mamlakat nomini quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

10. Ushbu davlat qirg'oqlari shimolda Shimoliy Muz okeani, sharqda Atlantika okeani, janubi-g'arbda Tinch okean suvlari bilan yuviladi. Mamlakat hududining kattaligi bo'yicha jahonda 2-o'rinda turadi. Ta'rif keltirilgan mamlakat nomini quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--

10. Jahon xo'jaligining umumiy tavsifi (Qo'llash)

1. Quyida berilgan mamlakatlarni ularning xususiyatlari bilan moslashtiring.

Mamlakatlar		Xususiyatlar	
1	Qatar	A	Gaz qazib olish bo'yicha peshqadam
2	Niderlandiya	B	Elektr energiyasi qazib olishda yatakchi
3	Xitoy	C	Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining asosiy qismi IESlarga to'g'ri keladi
4	AQSH	D	Suyultirilgan gaz ishlab chiqarishda yetakchi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

2. Quyida berilgan mamlakatlarni ularning xususiyatlari bilan moslashtiring.

Mamlakatlar		Xususiyatlar	
1	Tailand	A	Jahonning eng ko'p makkajo'xori yetishtiruvchi davlati
2	Braziliya	B	Bug'doy yetishtirishda peshqadam davlat
3	AQSH	C	Shakarqamish yetishtirishda jahonda yetakchi davlat
4	Xitoy	D	Tabiiy kauchuk yetishtirishda peshqadam davlat

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

3. Quyida berilgan mamlakatlarni ularning xususiyatlari bilan moslashtiring.

Mamlakatlar		Xususiyatlar	
1	Braziliya	A	Selluloza-qog'oz sanoati mamlakatning shimoliy regionlarida rivojlangan

2	Yaponiya	B	Avtotransport vositalarining asosiy qismi bioyoqilg'i (etanol)dan foydalanib ishlaydi
3	Portugaliya	C	Yevropaning yarimorolda joylashgan mamlakati
4	Rossiya	D	Relyefining tog'liligi qishloq xo'jaligi yerlarining yetishmovchiligiga olib kelgan

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

4. Quyida berilgan mamlakatlar (1, 2, 3)ni ularning xususiyatlari (A, B, C) bilan o'zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Xususiyatlar	
1	Rossiya	A	Bioyoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda turadi
2	Braziliya	B	Maydonining kattaligiga ko'ra jahon mamlakatlari orasida 9-o'rinni egallaydi
3	Qozog'iston	C	Dunyo mamlakatlari orasida eng katta yer fondiga ega

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

5. Quyida berilgan mamlakatlarni ularning xususiyatlari bilan moslashtiring.

Mamlakatlar		Xususiyatlar	
1	Hindiston	A	Mamlakat hududining 70% i tekisliklar bilan band
2	Braziliya	B	Jahonda yalpi ichki mahsuloti hajmiga ko'ra Xitoy va AQSHdan keyingi 3-o'rinda turadi
3	Koreya Respublikasi	C	Eng yirik daryolari — Naktongan va Xangan
4	Rossiya	D	Irqi tarkibida yevropeoidlar va mulatlar ko'pchilikni tashkil qiladi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

6. Quyida berilgan mamlakatlarni ularning elektr energiyasiga bo'lgan talabini qondiradigan asosiy energetika manbai bilan o'zaro moslashtiring.

Energetika manbai		Mamlakatlar	
1	Issiqlik elektr energetikasi	A	Kolumbiya
2	Gidroelektr energetikasi	B	Meksika
3	Atom elektr energetikasi	C	Koreya Respublikasi

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

7. Quyida berilgan mamlakatlarni ulardan rivojlangan muqobil energiya manbai turi bilan o‘zaro moslashtiring.

Muqobil energiya manbai		Mamlakatlar	
1	Geotermal energiya	A	Niderlandiya
2	Qalqish energiyasi	B	Islandiya
3	Shamol energiyasi	C	Kanada

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

8. Quyida berilgan jahon mamlakatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik holatiga ko‘ra turlari bilan o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik holatiga ko‘ra turlari	
1	Fransiya	A	Agrar-industrial
2	Afg‘oniston	B	Postindustrial
3	Braziliya	C	Agrar
4	Qozog‘iston	D	Industrial
5	Kambodja	E	Industrial-agrar

1		2		3		4		5	
---	--	---	--	---	--	---	--	---	--

9. Jadvalda berilgan mamlakatlar nomlarini ularning boshqaruv shakli bilan o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Boshqaruv shakllari	
1	Tojikiston	A	Prezidentlik respublikasi
2	Daniya	B	Konstitutsion monarxiya
3	Ummon	C	Parlamentar respublika
4	Germaniya	D	Mutlaq monarxiya

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

10. Jadvalda berilgan mamlakatlar nomlarini ularning boshqaruv shakli bilan o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Boshqaruv shakllari	
1	Avstraliya	A	Prezidentlik respublikasi
2	Argentina	B	Konstitutsion monarxiya
3	Bruney	C	Parlamentar respublika
4	Bolgariya	D	Mutlaq monarxiya

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

11.O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari (viloyatlari) (Qo'llash)

1. Berilgan xususiyatlar orasidan Navoiy viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududining katta qismi Qizilqum cho'lidan iborat
2. Qoq o'rtasidan Zarafshon daryosi oqib o'tadi
3. Sangzor vodiysi joylashgan
4. Cho'l yaylovlarida go'sht va yog' uchun hisori qo'ylari boqiladi
5. Muruntov oltin koni joylashgan
6. Tomdi va Nurota tumanlarida bog'lar va uzumzorlar ko'p
7. Hududi janubdan baland tog'lar bilan o'ralgan
8. Buxoro va Samarqand viloyatlari hududidan tashkil topgan

--	--	--

2. Berilgan xususiyatlar orasidan Jizzax viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududining katta qismi Jom cho'lidan iborat
2. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining janubi-g'arbida joylashgan
3. Hisor tizmasi joylashgan
4. Oqtosh marmar koni joylashgan
5. Tabiiy gaz Buxoro viloyatidan, elektr quvvati esa Sirdaryo viloyatidan keltiriladi
6. Cho'l yaylovlarida go'sht va yog' uchun hisori qo'ylari boqiladi

--	--	--

3. Berilgan xususiyatlar orasidan Buxoro viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududining katta qismi Qizilqum cho'lidan iborat
2. Janubiy iqtisodiy rayonning janubi-g'arbida joylashgan
3. Yoqilg'i foydali qazilmalariga boy emas
4. Ko'kpatas oltin koni joylashgan
5. Oqqum va Porsonko'l hududlaridan neft va tabiiy gazning katta zaxiralari aniqlangan
6. Cho'l yaylovlarida go'sht va yog' uchun hisori qo'ylari boqiladi
7. Viloyatning janubi-sharqidagi shaharda yirik neftni qayta ishlash zavodi mavjud

--	--	--

4. Berilgan xususiyatlar orasidan Jizzax viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududining katta qismi Zarafshon tizmasidan iborat
2. Viloyat hududi Zarafshon iqtisodiy rayonining janubi-g'arbida joylashgan
3. Yerlari Sangzor daryosi hamda Janubiy Mirzacho'l kanalining suvi bilan sug'oriladi
4. Viloyatdagi Baliqchi ko'lida shifobaxsh balchiq ko'p
5. Porsonko'l hududlaridan neft va tabiiy gazning katta zaxiralari aniqlangan
6. Viloyatda akkumulator zavodi, trikotaj fabrikasi, qurilish materiallari zavodlari bor
7. Viloyatning janubi-sharqidagi shaharda yirik neftni qayta ishlash zavodi mavjud

--	--	--

5. Berilgan xususiyatlar orasidan Andijon viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududining katta qismi Yozyovon cho‘lidan iborat
2. Farg‘ona iqtisodiy rayonining sharqida joylashgan
3. Yoqilg‘i va rudali foydali qazilmalariga boy
4. Viloyatdagi bog‘ va tokzorlari adirlar hisobiga kengaymoqda
5. Viloyat uchun tog‘-kon sanoatining tarmoqlari muhim ahamiyatga ega
6. Cho‘l yaylovlarida go‘sht va yog‘ uchun hisori qo‘ylari boqiladi
7. Viloyatdan qazib olingan neft quvur orqali Farg‘onadagi neftni qayta ishlash zavodiga yuboriladi

--	--	--

6. Berilgan xususiyatlar orasidan Janubiy iqtisodiy rayonga tegishlilarini ajrating.

1. Afg‘oniston, Turkmaniston hamda Tojikiston bilan chegaradosh
2. Janubidan Sirdaryo oqib o‘tgan
3. Maydonining kattaligi jihatidan mamlakatda ikkinchi o‘rinda turadi
4. Eng past nuqtasi -12 metrni tashkil etadi
5. G‘alla va paxta ekin maydonlari bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinda turadi
6. 1997-yilda yirik neft zavodi qurilgan
7. O‘zbekistonning eng baland nuqtasi shu iqtisodiy rayonda joylashgan
8. Taxiatosh IESi mavjud

--	--	--

7. Berilgan xususiyatlar orasidan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoniga tegishlilarini ajrating.

1. Turkmaniston va Qirg‘iziston bilan chegaradosh
2. Aholi soni va zichligi Orol dengiziga tomon kamayib boradi
3. Maydonining kattaligi jihatidan mamlakatda uchinchi o‘rinda turadi
4. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning deyarli 90 foizi yaylovlardan iborat
5. Paxta ekin maydonlari bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinda turadi
6. Qo‘ng‘irot soda zavodi va O‘rga gaz koni joylashgan
7. O‘zbekistonning eng past nuqtasi shu iqtisodiy rayonda joylashgan
8. Talimarjon IESi mavjud

--	--	--

8. Berilgan xususiyatlar orasidan Xorazm viloyatiga tegishlilarini ajrating.

1. Qo‘rg‘oshin, rux, volfram konlari bor
2. Hududining katta qismi Amudaryoning deltasidan iborat
3. Sharqiy qismini Hisor tog‘lari o‘rab olgan
4. Beshta shahri mavjud
5. Orol dengizi uning xo‘jaligiga sezilarli ta’sir etadi

6. Ingichka tolali paxta yetishtiriladi
7. Viloyatning janubiy qismida Zomin sanatoriyasi qurilgan
8. Amudaryoning chap sohilida joylashgan

--	--	--

9. Berilgan xususiyatlar orasidan Farg‘ona iqtisodiy rayoniga tegishlilarini ajrating.

1. Aholi soni bo‘yicha mamlakatimizda birinchi o‘rinda turadi
2. Sirdaryo iqtisodiy rayonning sharqiy qismidan oqib o‘tgan
3. Mazkur iqtisodiy rayon o‘z tarkibiga 2 ta viloyatni qamrab olgan
4. O‘zbekistonda yetishtirilayotgan paxtaning 1/4 qismini beradi
5. Mamlakatda yagona bo‘lgan “millioner” shahri mavjud
6. Yirik kulolchilik, pichoqchilik, shoyi ishlab chiqarish markazlari mavjud
7. Iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i chorvachilik hisoblanadi
8. Mamlakatimizdagi eng yirik cho‘llar shu rayonda joylashgan

--	--	--

10. Berilgan xususiyatlar orasidan Zarafshon iqtisodiy rayoniga tegishlilarini ajrating.

1. Maydonining kattaligi jihatidan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidan keyinda turadi
2. Amudaryo iqtisodiy rayonning sharqiy qismidan oqib o‘tgan
3. Mazkur iqtisodiy rayon o‘z tarkibiga 2 ta viloyatni qamrab olgan
4. Maydonining asosiy qismi tekislik (Qizilqum cho‘li)dan iborat
5. Mamlakatda yagona bo‘lgan “millioner” shahri mavjud
6. Yirik kulolchilik, pichoqchilik, shoyi ishlab chiqarish markazlari mavjud
7. Iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i mashinasozlik hisoblanadi
8. Yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlaydigan korxona joylashgan

--	--	--

12. Materiklar tabiati (Qo‘llash)

1. Shimoliy Amerika materigidagi geografik obyektlar va ular joylashgan tabiat zonalarini o‘zaro moslashtiring.

Geografik obyektlar		Tabiat zonolari	
1	Grenlandiya oroli	A	Arktika cho‘llari
2	Buyuk tekisliklar	B	Fasliy nam o‘rmonlar
3	Qirg‘oq tizmasi	C	Qattiq bargli doimiy yashil o‘rmonlar va butazorlar
4	Florida yarimoroli	D	O‘rmon-dasht va dashtlar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

2. Janubiy Amerika materigidagi geografik obyektlar va ular joylashgan tabiat zonalarini o‘zaro moslashtiring.

Geografik obyektlar		Tabiat zonalari	
1	Patagoniya	A	Aralash va kengbargli o‘rmonlar
2	Orinoko deltasi	B	Sernam ekvatorial o‘rmonlar
3	Riu Negru havzasi	C	Chalacho‘llar va cho‘llar
4	Olovli Yer oroli	D	Savannalar va siyrak o‘rmonlar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

3. Yavrosiyo materigidagi geografik obyektlar va ular joylashgan tabiat zonalarini o‘zaro moslashtiring.

Geografik obyektlar		Tabiat zonalari	
1	Balxash ko‘li	A	Chalacho‘llar va cho‘llar
2	Dekan platosi	B	Sernam ekvatorial o‘rmonlar
3	Sena daryosi	C	Aralash va kengbargli o‘rmonlar
4	Sulavesi oroli	D	Savannalar va siyrak o‘rmonlar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

4. Orollar va ular joylashgan iqlim mintaqalarini o‘zaro moslashtiring.

Orollar nomi		Iqlim mintaqalari	
1	Kuba oroli	A	Tropik mintaq
2	Islandiya oroli	B	Mo‘tadil mintaq
3	Saxalin oroli	C	Subekvatorial mintaq
4	Shri Lanka oroli	D	Subarktika mintaqasi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

5. Avstraliya materigidagi geografik obyektlar va ular joylashgan tabiat zonalarini o‘zaro moslashtiring.

Geografik obyektlar		Tabiat zonalari	
1	Keri ko‘li	A	Chalacho‘llar va cho‘llar
2	Arnemlend yarimoroli	B	Fasliy nam (musson) o‘rmonlar
3	Bayron burni	C	Savannalar va siyrak o‘rmonlar
4	Melburn shahri	D	Qattiq bargli doimiy yashil o‘rmonlar va butazorlar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

6. Avstraliya materigidagi geografik obyektlar va ular joylashgan iqlim mintaqalarini o‘zaro moslashtiring.

Geografik obyektlar		Iqlim mintaqalari	
1	Keyp York yarim oroli	A	Janubiy mo‘tadil mintaq

2	Keri ko‘li	B	Janubiy tropik mintaq
3	Viktoriya katta cho‘li	C	Janubiy subtropik mintaq
4	Tasmaniya oroli	D	Janubiy subekvatorial mintaq

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

7. Afrika materigidagi geografik obyektlar va ular joylashgan iqlim mintaqalarini o‘zaro moslashtiring.

Geografik obyektlar		Iqlim mintaqalari	
1	Ben Sekka burni	A	Janubiy tropik mintaq
2	Yaxshi umid burni	B	Shimoliy tropik mintaq
3	Namib cho‘li	C	Janubiy subtropik mintaq
4	Sahroyi Kabir	D	Shimoliy subtropik mintaq

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

8. Quyida keltirilgan Yevrosiyo tabiat zonalarini ularning peyzajlarini ifodalovchi rasmlar bilan moslashtiring.

1. Chalacho‘l zonasi
2. Tayga zonasi
3. Sernam ekvatorial o‘rmonlar zonasi
4. Cho‘l zonasi

			
A	B	C	D

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Shimoliy Amerika materigidagi geografik obyektlar va ular joylashgan o‘lkalarni o‘zaro moslashtiring.

Geografik obyektlar		Tabiiy geografik o‘lkalar	
1	Lavrentiy qirlari	A	Arktika orollari
2	Alyaska kordilyerasi	B	Sharq
3	Grenlandiya	C	Markaziy Amerika
4	Yukatan yarimoroli	D	Kordilyera tog‘lari

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

10. Janubiy Amerika materigidagi geografik obyektlar va ular joylashgan o'lkalarni o'zaro moslashtiring.

Geografik obyektlar		Tabiiy geografik o'lkalar	
1	Titikaka ko'li	A	Markaziy And
2	Salinas Chikas botig'i	B	Amazoniya
3	Riu Negru daryosi	C	Janubiy And
4	Akonkagua tog'i	D	Patagoniya

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

13. Geografik qobiq va geografik xaritalar (Bilish)

1. Yer po'sti va mantiyaning yuqori qismini o'z ichiga olgan qobiq ... deb ataladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

2. Ob-havoning biror joyga xos bo'lgan ko'pyillik rejimi (holati) shu joyning ...i deyiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--

3. Avstraliyadagi Markaziy Havzada toshloq quruq daryo vodiylari — ... ko'p uchraydi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

4. Janubiy Amerika materigida ekvatorial o'rmonlar zonasini ... deb atashadi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--

5. ... xaritalarida Yer yuzining qayerida qancha yog'in yog'ishi, havo harorati qanday bo'lishi, shamollar yo'nalishi ko'rsatiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--

6. Ob-havoning biror joyga xos bo'lgan ko'pyillik rejimi (holati) ... deyiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--

7. Foydalanish eng qulay bo'lgan ... masshtab teng qismlarga bo'lingan to'g'ri chiziq shaklida bo'ladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

8. Yer yuzasining kattaligi, kelib chiqishi, yoshi va rivojlanish tarixi turlicha bo'lgan shakllari ... deb ataladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

9. Yer yuzasidagi har bir nuqtaning kenglik va uzoqligi shu nuqtaning geografik ...si deb ataladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

10. ... xaritalarda hududning umumiy ko'rinishi, ya'ni relyef, daryolar, ko'llar, dengizlar, shaharlar, okeanlardagi yirik oqimlar va boshqalar ko'rsatiladi. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

14. Jahonning regional tavsifi (Qo'llash)

1. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o'zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Kanada	A	Amazonka daryosi
2	Braziliya	B	Sahroyi Kabir
3	Mali	C	Vinnipeg shahri
4	Buyuk Britaniya	D	Ben Nevis tog'i

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

2. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o'zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Germaniya	A	Yura tog'lari
2	Fransiya	B	Yoxannesburg shahri
3	Hindiston	C	Vezer daryosi
4	JAR	D	Ganga daryosi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

3. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Rossiya	A	Luara daryosi
2	Hindiston	B	Tar cho‘li
3	Fransiya	C	Ural tog‘lari
4	AQSH	D	Niagara sharsharasi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

4. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Xitoy	A	Monreal shahri
2	Nigeriya	B	Lagos shahri
3	Braziliya	C	Tibet tog‘ligi
4	Kanada	D	Amazonka daryosi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

5. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan shaharlarni o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Kanada	A	Buenos Ayres
2	JAR	B	Yoxannesburg
3	KXDR	C	Toronto
4	Argentina	D	Pxenyan

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

6. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Kanada	A	Gudzon qo‘ltig‘i
2	Argentina	B	Kinshasa shahri
3	Eron	C	Elburs tog‘lari
4	Kongo Demokratik Respublikasi	D	Parana daryosi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

7. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	JAR	A	Kap tog‘lari

2	Italiya	B	Ajal vodiysi
3	Braziliya	C	Po daryosi
4	AQSH	D	Amazonka daryosi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

8. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Turkiya	A	Denali cho‘qqisi
2	AQSH	B	Drakon tog‘lari
3	JAR	C	And tog‘lari
4	Ekvador	D	Van ko‘li

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Tanzaniya	A	Titikaka ko‘li
2	Rossiya	B	Viktoriya ko‘li
3	Qirg‘iziston	C	Ladoga ko‘li
4	Peru	D	Issiqko‘l ko‘li

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

10. Mamlakatlar va ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni o‘zaro moslashtiring.

Mamlakatlar		Geografik obyektlar	
1	Italiya	A	Vinnipeg ko‘li
2	Madagaskar	B	Padan tekisligi
3	Kanada	C	Antananarivu shahri
4	Tojikiston	D	Tursunzoda shahri

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

15. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi (Qo‘llash)

1. Berilgan tabiiy geografik okruglar va ularga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar		Xususiyatlar	
1	Surxondaryo	A	Hududida Kassarma ko‘tarilmasi joylashgan
2	Ustyurt	B	Janubiy qismida Qoratepa tog‘i joylashgan
3	O‘rta Zarafshon	C	Hududining relyefi shimoldan janubga, sharq va g‘arbdan markazga tomon pasayib boradi

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

2. Berilgan tabiiy geografik okruglar va ularga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar		Xususiyatlar	
1	Farg‘ona	A	Markaziy qismida Yozyovon va Qoraqalpoq cho‘llari joylashgan
2	Ustyurt	B	Uning janubi-g‘arbidan tranzit daryo – Amudaryo oqib o‘tadi
3	Qizilqum	C	Geomorfologik tuzilishi jihatidan kenglik bo‘ylab yo‘nalgan bir necha bukilma va ko‘tarilmalardan iborat

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

3. Berilgan tabiiy geografik okruglar va ularga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar		Xususiyatlar	
1	Surxondaryo	A	Turon tekisligining markaziy qismida, Ustyurt okrugi bilan Qizilqum okrugi orasida joylashgan
2	Orol	B	Piskom daryosi okrugning eng yirik daryolaridan biri hisoblanadi
3	Chirchiq-Ohangaron	C	Okrugda uzunligi 20 km dan ortiq bo‘lgan 35 ta daryo mavjud

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

4. Berilgan tabiiy geografik okruglar va ularga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar	Xususiyatlar
---------------------------	--------------

1	Quyi Zarafshon	A	Turkiston, Morguzar, Nurota tog‘larining shimoliy yonbag‘rini o‘z ichiga oladi
2	Qashqadaryo	B	Do‘litalisho‘r, Sho‘rsoy, Suxtasho‘r, Yonboshsho‘r kabi sho‘rxoklar joylashgan
3	Mirzacho‘l	C	Okrug hududida eng keng tarqalgan jinslar kaynozoy erasining neogen va paleogen yotqiziqlari hisoblanadi

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

5. Berilgan tabiiy geografik okruglar va ular hududida joylashgan relyef shakllari nomlarini o‘zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar			Xususiyatlar
1	O‘rta Zarafshon	A	Qoraqalpoq cho‘li
2	Farg‘ona	B	Oqtov tizmasi
3	Ustyurt	C	Asakaovdon botig‘i

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

6. Berilgan tabiiy geografik okruglar va ularga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar			Xususiyatlar
1	O‘rta Zarafshon	A	Surxon-Sherobod vodiysini va uning atrofidagi tog‘larni egallaydi
2	Surxondaryo	B	Sho‘rko‘l, Sudochoye, Abilko‘l ko‘llari mavjud
3	Quyi Amudaryo	C	Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilgan

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

7. Berilgan tabiiy geografik okruglar va ular hududida joylashgan daryo/soylarni o‘zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar			Daryo/Soylar
1	O‘rta Zarafshon	A	Sherobod
2	Surxondaryo	B	Sangzor
3	Mirzacho‘l	C	Urgutsoy
4	Farg‘ona	D	Isfara

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

8. Berilgan tabiiy geografik okruglar va ularga xos xususiyatlarni o‘zaro moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar		Xususiyatlar	
1	Quyi Zarafshon	A	Bodomsimon shakldagi vodiya joylashgan
2	Qashqadaryo	B	Bir qancha yirik neft-gaz konlari bor
3	Farg‘ona	C	Okrugni shimoldan Zarafshon tizmasi o‘rab olgan

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

9. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularda tarqalgan tuproq turlarini moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar		Tuproq turlari	
1	Qizilqum	A	Taqirsimon tuproqlar, qumli sho‘rlangan tuproqlar
2	Chirchiq-Ohangaron	B	Qumoq, qumli, sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar
3	Orol	C	Bo‘z tuproqlar, qo‘ng‘ir tog‘-o‘rmon tuproqlari

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

10. Berilgan tabiiy geografik okruglar hamda ularning hududida joylashgan geografik obyektlarni moslashtiring.

Tabiiy geografik okruglar		Geografik obyektlar	
1	Chirchiq-Ohangaron	A	Kassarma ko‘tarilmasi
2	Ustyurt	B	Ko‘ksuv tog‘i
3	Mirzacho‘l	C	Qo‘ytosh tog‘i

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

16. Materiklar va okeanlar tabiati (Qo‘llash)

1. Berilgan xususiyatlar orasidan Yevrosiyo materigiga tegishlilarini ajrating.

- Hududining shimoliy qismida sovuq arktika iqlimi hukmron
- Janubiy qismida Himolay tog‘li o‘lkasi joylashgan
- Eng balandda joylashgan chuchuk suvli tog‘ ko‘li mavjud
- Eng sersuv daryosi materikning g‘arbida joylashgan
- Dunyodagi eng yirik yarimoroli bor
- G‘arbiy qismida shimoldan janubga yo‘nalgan yirik tekislik mavjud
- Dunyodagi eng uzun va sersuv daryosi bor
- Hududi yagona mustahkam platforma qalqonidan iborat

--	--	--

2. Berilgan xususiyatlar orasidan Avstraliya materigiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududining janubiy qismida sovuq antarktika iqlimi hukmron
2. Shimoliy qismida Karpentariya qo'ltig'i joylashgan
3. Cho'llarida toshloq sahrolar – hamadalar uchraydi
4. Butunlay janubiy yarimsharda joylashgan
5. Eng sersuv daryosi materikning g'arbida joylashgan
6. G'arbiy qismida shimoldan janubga yo'nalgan yirik tekislik mavjud
7. Dunyodagi eng chuqur va chuchuk suvli ko'li bor
8. Materikning 95% hududi pasttekislik va yassitog'liklardan iborat

--	--	--

3. Berilgan xususiyatlar orasidan Shimoliy Amerika materigining Kordilyera tog'lari o'lkasiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududining janubiy qismida sovuq arktika iqlimi hukmron
2. Grenlandiya, Kanada-Arktika arxipelagini o'z ichiga oladi
3. Hududi tekis, shuning oqibatida geografik zonalar yaqqol aks etgan
4. Materikning eng baland cho'qqisi Denali (Mak Kinli, 6 194 m) shu yerda joylashgan
5. Butunlay janubiy yarimsharda joylashgan
6. Alyaska yarimorolida va Aleut orollarida kuchli zilzilalar bo'lib turadi
7. Ichki yassitog'liklarda tog'-tundra o'simliklari rivojlangan
8. Hudud uchun tropik iqlim xos

--	--	--

4. Berilgan xususiyatlar orasidan G'arbiy Sibir o'lkasiga tegishlilarini ajrating.

1. O'lka hududining mutlaq balandligi 300 m dan oshmaydi
2. O'lka o'z nomi bilan ataluvchi pasttekislik va Kara dengizidagi bir qancha kichikroq orollarni tarkibiga oladi
3. Eng baland nuqtasi Kavkaz tog'ida bo'lib, balandligi 5642 m ga yetadi
4. Sibirning markaziy qismini egallab, sharqda Kolima daryosining vodiysigacha davom etadi
5. Ob, Irtish, Taz va Pur kabi daryolar o'lkaning eng yirik daryolaridir
6. Putorana tog'larida mutlaq balandlik 1701 m ga yetadi
7. Yenisey, Lena, Aldan, Kolima, Taymir, Xatanga Vilyuy, Anabar daryolari o'lkaning asosiy daryolaridir
8. O'lkaning markaziy va janubiy qismidan yer po'stining faol Alp-Himolay seysmik mintaqasi o'tadi

--	--	--

5. Berilgan xususiyatlar orasidan Shimoliy Afrika tabiiy geografik o'lkasiga tegishlilarini ajrating.

1. Hududining katta qismida sernam ekvatorial iqlim hukmron
2. Janubda mavsumiy nam o'rmonlar zonasidan shimolda O'rta dengizgacha cho'zilgan
3. Sahroyi Kabir va Atlas tog'lari shu o'lkada joylashgan
4. Eng katta rift zonasi shu o'lkada joylashgan
5. G'arbda Atlantika okeani sohillaridan sharqda Efiopiya tog'larining etaklarigacha bo'lgan hududlarni egallaydi
6. Mazkur o'lkani ba'zan "Afrika materigining tomi" deb atashadi
7. Kongo — Zambezi daryolari suvayirg'ichidan janubdagi hududlarni egallaydi
8. Shimolida sernam musson o'rmonlari uchraydi

--	--	--

6. Berilgan xususiyatlar orasidan Shimoliy Amerika materigiga tegishlilarini ajrating.

1. Sharqiy qismida yirik yer yorig'i bor
2. Janubiy qismida Patagoniya tabiiy geografik o'lkasi joylashgan
3. Materik qirg'oqlarida eng baland suv qalqishi kuzatiladi
4. Eng katta va eng chuqur ko'llar shu materikda joylashgan
5. Daryolari ikkita okeanga o'z suvlarini quyadi
6. Materikning shimoliy qismi kuchli parchalangan
7. Uchta harakatdagi vulqoni mavjud
8. Ayrim daryolari quyi oqimida estuariy hosil qiladi

--	--	--

7. Berilgan xususiyatlar orasidan Shimoliy Afrika tabiiy geografik o'lkasiga tegishlilarini ajrating.

1. G'arbiy qismida meridional yo'nalgan yirik ko'l joylashgan
2. Janubidan Nil daryosi oqib o'tadi
3. Savannali Sudan shu o'lkada joylashgan
4. Eng katta va eng chuqur ko'llar shu o'lkada joylashgan
5. Shimoli-g'arbiy qismini qattiq bargli doimiy yashil o'rmonlar va butazorlar zonasi egallaydi
6. Gvineya qo'ltig'i sohillari va Kongo havzasini qamrab oladi
7. Buyuk Afrika yer yorig'i joylashgan
8. O'lkadagi Saxel hududi o't-o'simlikka nisbatan boy

--	--	--

8. Berilgan xususiyatlar orasidan Antarktida materigiga tegishlilarini ajrating.

1. Materikning 3 ta vulqoni mavjud
2. Viktoriya katta cho'li uning markaziy qismida shakllangan
3. Materikning eng baland nuqtasi g'arbiy qirg'oqlarida joylashgan
4. Bir qancha davlatlar tomonidan ilmiy stansiyalar tashkil etilgan

5. G'arbiy qismi yosh tog'lardan, sharqiy qismi esa platformadan iborat
6. Materiklar orasida eng oxirgi bo'lib kashf etilgan
7. Bir qancha qadimgi platformalardan iborat
8. Qirg'oqlarini 4 ta okean suvlari yuvib turadi

--	--	--

9. Berilgan xususiyatlar orasidan Avstraliya materigiga tegishlilarini ajrating.

1. Materikda kuchli tektonik faolliklar kuzatiladi
2. Yirik ko'llari mavjud bo'lib, ular materikning markaziy qismida joylashgan
3. Hududida 5 dan ziyod 5 000 metrlik cho'qqilar mavjud
4. Dunyodagi eng yirik sut emizuvchi hayvonlar shu yerda yashaydi
5. Turli xil xaltali hayvonlar vatani hisoblanadi
6. Materikning katta qismi janubiy tropik mintaqada joylashgan
7. Vaqti-vaqti bilan materikning eng past nuqtasiga Kuper-Krik kelib quyiladi
8. Ayrim daryolari Shimoliy Muz okeaniga o'z suvini quyadi

--	--	--

10. Berilgan xususiyatlar orasidan Avstraliya materigiga tegishlilarini ajrating.

1. Materikda kuchli tektonik faolliklar kuzatiladi
2. Materikning katta qismi janubiy tropik mintaqada joylashgan
3. Hududida 5 dan ziyod 5 000 metrlik cho'qqilar mavjud
4. Dunyodagi eng yirik sut emizuvchi hayvonlar shu yerda yashaydi
5. Turli xil haltali hayvonlar vatani hisoblanadi
6. Yirik ko'llari mavjud bo'lib, ular materikning markaziy qismida joylashgan
7. Vaqti-vaqti bilan materikning eng past nuqtasiga Kuper-Krik kelib quyiladi
8. Ayrim daryolari Shimoliy Muz okeaniga o'z suvini quyadi

--	--	--

17. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (Bilish)

1. Sirdaryo bilan Arnasoy ko'li oralig'ida ... tabiiy geografik okrugi joylashgan. *Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.*

--	--	--	--	--	--	--	--

2. ... okrugining shimoli-g'arbida qumliklar mavjud bo'lib, ular orasida sho'rxoklar, gilli taqirlar uchraydi. *Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.*

--	--	--	--	--	--	--	--

3. ... arid-denudatsion plato hisoblanib, mutlaq balandligi 100—200 m bo'lib, atrofi chinklar bilan o'ralgan. *Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan so'zni quyidagi kataklarga yozing.*

--	--	--	--	--	--	--	--

4. ... okrugining markaziy qismlarida past tog‘lar joylashgan. Ularning eng muhimlari Quljuqtov (785 m), Yetimtov (511 m), O‘omditov (974 m), Ovminzatov (695 m), Bo‘kantov (764 m), Sulton Uvays tog‘i (473 m). Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

5. Buxoro vohasi janubi-g‘arbga qarab pasayib, torayib borib, ... platosiga tutashib ketadi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

6. Relyefi janubi-sharqdan shimoli-g‘arbga tomon pasayib boruvchi ... okrugining shimoliy qismida yirik ko‘llar joylashgan bo‘lib, grunt suvi yer betiga yaqin va o‘ta sho‘rlangan hisoblanadi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--

7. ... tabiiy geografik okrugining shimoliy chegarasi Qoratepa, Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘lari orqali, g‘arbiy chegarasi Jarqoq, Muborak va Dengizko‘l balandliklari orqali o‘tadi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

8. ... tabiiy geografik okrugi sharqdan va shimoli-sharqdan Bobotog‘ va Hisor tog‘lari orqali Tojikiston bilan chegaralanadi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

9. tabiiy geografik okrugi hududi so‘nggi yillarda shakllangan bo‘lib, tuproqlari o‘ta sho‘rlangan hamda uning relyefiga eol jarayonlar kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.


--	--	--	--

10. Okrugning g‘arbiy chegarasi Jarqoq, Muborak va Dengizko‘l balandliklari orqali o‘tadi. Janubi va janubi-g‘arbida Sandiqliqum ... okrugini Turkmanistondan ajratib turadi. Nuqtalar o‘rnida tushirib qoldirilgan so‘zni quyidagi kataklarga yozing.


--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

18. Kartografik topshiriq (Qo'llash)


1. Geograf chizmada tasvirlangan hududda tadqiqot ishlarini olib bordi. U o'rgangan nuqtalarini A, B, C, D harflari bilan belgiladi. Geograf o'rgangan nuqtalarning qaysi birida harorati eng past bo'ladi?




2. Geograf chizmada tasvirlangan hududda tadqiqot ishlarini olib bordi. U o'rgangan nuqtalarini A, B, C, D harflari bilan belgiladi. Geograf o'rgangan nuqtalarning qaysi birida havo harorati eng yuqori bo'ladi?




3. Quyida berilgan xarita-sxemada 1, 10, 7 raqamlari bilan qaysi gidrografik obyektlar ko'rsatilgan?




4. Quyida berilgan xarita-sxemada 10, 11, 15 raqamlari bilan qaysi gidrografik obyektlar ko'rsatilgan?




5. Quyida berilgan xarita-sxemada 3, 5, 7 raqamlari bilan qaysi gidrografik obyektlar ko'rsatilgan?




6. Quyida berilgan xarita-sxemada 3 raqami bilan ko'rsatilgan sovuq oqim natijasida qaysi cho'l hosil bo'lgan?




7. Quyida berilgan xarita-sxemada 2 raqami bilan ko'rsatilgan sovuq oqim natijasida qaysi yarimorolda cho'l va chalacho'l tabiati hosil bo'lgan?




8. Quyidagi xarita-sxemada 3 va 4 raqamlari bilan qaysi choʻkma va suvosti tizmasi belgilanganligini toping.



9. Quyidagi xarita-sxemada 1 va 2 raqamlari bilan qaysi suvosti tizmasi va choʻkma koʻrsatilganligini toping.



10. Quyidagi xarita-sxemada 1 va 2 raqamlari bilan qaysi suvosti ko‘tarilmalari ko‘rsatilganligini toping.




19. Tabiiy geografiyaga oid masala (yozma) (Mulohaza)


1. Dengiz sathida havo harorati $+18^{\circ}\text{C}$. Xuddi shu paytda tog‘ cho‘qqisida havo harorati -12°C bo‘lsa, tog‘ning mutlaq balandligini aniqlang (eslatma: havo harorati har 100 m ko‘tarilganda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga pasayadi).

2. Dengiz sathida havo harorati $+16^{\circ}\text{C}$. Xuddi shu paytda tog' cho'qqisida havo harorati -8°C bo'lsa, tog'ning mutlaq balandligini aniqlang (eslatma: havo harorati har 100 m ko'tarilganda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga pasayadi).

3. Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning mutlaq balandligi 400 m, u yerdagi havo bosimi 730 mm Hg ga teng bo'lsa, B nuqtadagi havo bosimini aniqlang (eslatma: havo bosimi har 100 m ko'tarilganda 10 mm Hg ga pasayadi).




4. Rasmda ko'rsatilgan B nuqtaning mutlaq balandligi 1900 m, u yerdagi havo bosimi 570 mm Hg ga teng bo'lsa, A nuqtadagi havo bosimini aniqlang (eslatma: havo bosimi har 100 m ko'tarilganda 10 mm Hg ga pasayadi).



5. Rasmda ko'rsatilgan B nuqtaning mutlaq balandligi 950 m, u yerdagi havo bosimi 665 mm Hg ga teng bo'lsa, A nuqtadagi havo bosimini aniqlang (eslatma: havo bosimi har 100 m ko'tarilganda 10 mm Hg ga pasayadi).




6. Rasmda ko'rsatilgan B nuqtaning mutlaq balandligi 3800 m, u yerdagi havo bosimi 380 mm Hg ga teng bo'lsa, A nuqtadagi havo bosimini aniqlang (eslatma: havo bosimi har 100 m ko'tarilganda 10 mm Hg ga pasayadi).



7. Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning mutlaq balandligi 400 m, u yerdagi havo harorati esa $+20^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lsa, B nuqtadagi havo haroratini aniqlang (eslatma: havo harorati har 100 m ko'tarilganda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga pasayadi).



8. Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning mutlaq balandligi 600 m, u yerdagi havo harorati esa $+23^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lsa, B nuqtadagi havo haroratini aniqlang (eslatma: havo harorati har 100 m ko'tarilganda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga pasayadi).



9. Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning mutlaq balandligi 1200 m, u yerdagi havo harorati esa $+38^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lsa, B nuqtadagi havo haroratini aniqlang (eslatma: havo harorati har 100 m ko'tarilganda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga pasayadi).



10. Rasmda ko'rsatilgan A nuqtaning mutlaq balandligi 600 m, u yerdagi havo harorati esa $+21^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lsa, B nuqtadagi havo haroratini aniqlang (eslatma: havo harorati har 100 m ko'tarilganda $0,6^{\circ}\text{C}$ ga pasayadi).



20. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaga oid masala (yozma) (Mulohaza)

1. Janubiy Afrika Respublikasining maydoni 1,22 mln kv. km, aholi soni esa 59,6 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda urbanizatsiya darajasi 67% ga teng bo'lsa, JAR dagi qishloq aholisining sonini aniqlang.
2. Italiya Respublikasining maydoni 302,1 ming kv. km, aholi soni esa 60,3 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda urbanizatsiya darajasi 70% ga teng bo'lsa, Italiyada yashovchi qishloq aholisining sonini aniqlang.

- 3.** Nigeriya Federativ Respublikasining maydoni 923,8 ming kv. km, aholi soni esa 206,1 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda urbanizatsiya darajasi 51% ga teng bo'lsa, Nigeriyada yashovchi qishloq aholisining sonini aniqlang.
- 4.** Pokistonning maydoni 803,9 ming kv. km, aholi soni esa 221 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda urbanizatsiya darajasi 37% ga teng bo'lsa, Pokistonda yashovchi qishloq aholisining sonini aniqlang.
- 5.** Misr Arab Respublikasining maydoni 1000 ming kv. km, aholi soni esa 100,8 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda urbanizatsiya darajasi 45% ga teng bo'lsa, Misrda yashovchi qishloq aholisining sonini aniqlang.
- 6.** Italiya Respublikasining maydoni 302,1 ming kv. km, aholi soni esa 60,3 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda qishloq aholisining ulushi 30% ga teng bo'lsa, Italiyadagi shahar aholisining sonini aniqlang.
- 7.** Buyuk Britaniyaning maydoni 243,8 ming kv. km, aholi soni esa 673,2 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda shahar aholisining ulushi 85% ga teng bo'lsa, Birlashgan Qirollikdagi qishloq aholisining sonini aniqlang.
- 8.** Koreya Respublikasining maydoni 100,2 ming kv. km, aholi soni esa 51,8 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda qishloq aholisining ulushi 20% ga teng bo'lsa, Koreya Respublikasidagi shahar aholisining sonini aniqlang.
- 9.** Avstraliya Ittifoqining maydoni 7692 ming kv. km, aholi soni esa 25,8 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda qishloq aholisining ulushi 14% ga teng bo'lsa, Avstraliya Ittifoqidagi shahar aholisining sonini aniqlang.
- 10.** Yaponiyaning maydoni 377,9 ming kv. km, aholi soni esa 126 mln kishi (2020-y.)ni tashkil etadi. Mamlakatda shahar aholisining ulushi 90% ga teng bo'lsa, Yaponiyadagi qishloq aholisining sonini aniqlang.


**USHBU IMTIHON SAVOLLARINING JAVOBLARINI
TO'LIQ HOLDA, BIZNING TELEGRAM KANALIMIZ
ORQALI YUKLAB OLISHINGIZ MUMKIN!**

Telegram manzil: ➡ [@ustoz](https://t.me/ustoz)

Kanalga qo'shilish uchun ustiga bosing

<https://t.me/ustoz>

<https://t.me/ustoz>



Eslatma: Faqat **@ustoz** username ostidagi kanalga bizga tegishli,
qolganlari soxta kanallar!

